Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 94

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

ARAB MAQOL-MATALLARINING JANR SIFATIDA O‘RGANILISHI VA TADQIQ ETILISH TARIXI: SHARQ, G‘ARB VA O‘ZBEKISTON ARABSHUNOSLIGI NIGOHIDA

Abror Diniqulov*

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

✉ abrordiniqulov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada arab xalq og‘zaki ijodining eng ommabop va qadimiy janrlaridan biri bo‘lgan maqol va matallar (amsol)ning janr sifatida o‘rganilishi, ularning nazariy-struktural tasnifi hamda tadqiq etilish tarixi tizimli ravishda tahlil qilinadi. Maqolada klassik va zamonaviy arab maqolshunosligining shakllanish bosqichlari, Yevropa arabshunosligida maqollarni o‘rganish an’analari hamda Rudolf Zulhaym singari g‘arb olimlarining nazariy qarashlari atroflicha ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘zbek arabshunoslik maktabining ushbu sohadagi o‘rni, xususan, Mahmud az-Zaxmaxshariy, A.S. Qahharov va Sh.G‘. Shomusarov kabi olimlarning arab amsolshunosligi rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi, arab va o‘zbek folklorining lingvomadaniy mushtarakligi qiyosiy jihatdan yoritiladi. XXI asr texnologiyalar davrida arab maqollarining transformatsiyasi maqolaning yakuniy qismida asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar

maqol, matal, amsol, dialektologiya, tashbeh, majoz, kleshalangan ibora.

DOI: 10.5281/zenodo.23278145

KIRISH

Xalq og‘zaki ijodi – har bir millatning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va ma’naviy-madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan bebahor xazinadir. Folklorshunoslik ilmida maqol va matallar alohida o‘rin tutadi, chunki ular xalq donishmandligining eng l‘onda, eng ta’sirchan va barqaror ifoda shakllaridir. Yirik folklorshunos olim V.Ya. Propp (1895–1970) folklor janriga ta’rif berar ekan, uni *«bir she’riy tizimda umumlashgan, maishiy, ahamiyatga molik (ijro etish shakli va musiqiy tartibiga ko‘ra) ijod mahsulidir»* deya baholaydi. Propp tizimida folklor to‘rtta asosiy guruhga bo‘linadi: 1) Nutqiy janrlar (maqollar, matallar, topishmoq va afsunlar); 2) Qo‘shiq janrlari; 3) Hikoyaviy janrlar; 4) Tomosha-ijro janrlari. Ushbu tasnifga ko‘ra, biz tadqiq etayotgan maqol va matallar folklorning bevosita «nutqiy» janri tarkibiga kiradi va arab madaniyatida ularga bo‘lgan qiziqish uzoq davrlarga borib taqaladi.

Arab og‘zaki poetik ijodining ilk kurtaklari va gullab-yashnashi Islomdan oldingi — Johiliya davriga borib taqaladi. Islom dinining paydo bo‘lishi va shiddat bilan butun dunyoga tarqalishi natijasida arab maqollariga bo‘lgan qiziqish yanada ortdi. Qadimgi arab madaniyati dastlabki bosqichlarda Yaqin va O‘rta Sharqdagi o‘zga xalqlar — qadimgi Misr, Ikki daryo oralig‘i (Mesopotamiya), Finikiya, Falastin va Eron xalqlari madaniyatlari bilan o‘zaro bog‘lanishda rivojlangan. Islomdan ilgari ikki asr davomida shakllangan she’riyat yarim og‘zaki, yarim yozma adabiyot xarakteriga ega bo‘lgan. Arablarda og‘zaki ijod umumlashgan holda muayyan atamaga ega bo‘lmagan, biroq xalq orasida eng urf bo‘lgan turlaridan biri «masal» (ko‘plikda «amsal») deb atalgan bo‘lib, uning o‘rni arab ma’naviyatida alohida ajralib turadi.

Arab mumtoz tili va shevalari frazeologizmlarga juda boydir. H.R.P. Diksonning ta’kidlashicha: «*Arablar doimo maqol va matallardan, shoir va allomalarning hikmatli so‘zlaridan, tarixiy voqealardan namunalar aytar va o‘sha buyuk insonlar kabi o‘zlari ham bundan lazzatlanar, bahra olishardi*». Abdulkafi ham o‘z navbatida: *«Aytish mumkinki, arablar boshqa millat vakillariga qaraganda maqollardan anchayin keng tarzda foydalanishadi»*, deb yozadi. Buning sababi shundaki, arablar o‘z ona tillarini «jannat tili va Alloh tomonidan in’om etilgan eng muqaddas, eng go‘zal va eng ajoyib til» deb biladilar. Badaviylar orasida maqollarning ishlatilishi, ikki inson o‘rtasidagi suhbat natijasida hikmatli so‘zlarni o‘z o‘rnida ishlata bilish o‘sha insonning aqlli va o‘qimishli ekanligidan dalolat bergan hamda insonlar orasida hurmat-izzat keltirgan.

ASOSIY NATIJALAR VA TAHLIL

1. Arab mumtoz amsolshunosligining shakllanishi va davrlashtirilishi

Islomgacha bo‘lgan davr she’riyati va prozasida maqollar hamda hikmatli so‘zlar (aforizmlar) muhim o‘rin tutgan. Ularning ko‘pchiligi qadimgi arab donishmandi Luqmoni Hakim tomonidan yaratilgan bo‘lib, keyinchalik bu epik asarlar Abu Ubayd tomonidan «Arab kunlari» («Ayyam al-Arab») deb atalgan to‘plamga kiritilgan.

Arab maqollarini o‘rganish tarixi asosan VIII–XII asrlarga to‘g‘ri keladi. Maqol janri yodgorliklari Arabistonning sharqiy o‘lkalarida — Ummon, Najd, Bahrayn va Frot daryosi atroflarida ko‘proq uchraydi. 660-yilgacha bu yerda eng birinchi maqollar Sahar ibn Ayyash tomonidan jamlangan bo‘lsa, Abid ibn Shariba 50 sahifalik to‘plam tuzgan. Abbosiylar davrida arab masallari tarixining «Al-amsal al-muvallada» (zamonaviy va hayotga moslashgan maqollar) davri boshlandi. Bu davr johiliyat masallari va zamonaviy masallar orasidagi ko‘prik vazifasini bajardi. Hijriy II asrda Kufa va Basra shaharlari masal to‘plamlari tuzishning markaziga aylandi. Kufada «Kalbiyya» (Shariq ibn Qutami) va «Dabbiyya» (Mufaddal Dabbi) maktablari qadimgi maqollarni kelgusi avlodlarga yetkazishda katta xizmat qildilar.

Bizgacha to‘la holatda saqlanib qolgan maqol to‘plamlarining birinchisi Mufaddal ibn Salamah Dabbiyning VIII asrga oid «Kitab al-Amsal» («Maqollar kitobi») asaridir. Unda 218 ta masalni o‘z ichiga olgan 88 ta qissa mavjud. Yana bir yirik olim Abu Ubayd Qosim ibn Sallam Harashiy (770–838) ham «Kitab al-Amsal» asarini yozib, unda masallarni ma’lum mavzular asosida tizimlashtirgan. Uning qo‘lyozma nusxalari Sankt-Peterburg davlat universiteti (№625) va Berlin davlat kutubxonasida (№141) saqlanmoqda.

Keyingi davrlarda Abu Hilol Asqariy (v. 1005 y.) «Jamxarat al-Amsal» asarini yaratib, unda har bir maqolni filologik va tarixiy nuqtai nazardan birinchi bo‘lib sharhladi. Eng mukammal to‘plam esa Ahmad Muhammad Maydoniy (v. 1124 y.) tomonidan yozilgan 2 jildlik «Kitab majma’ al-amsal» asari bo‘lib, u o‘zidan oldingi barcha olimlarning ishlarini jamlagan.

Maqol ilmining mutaxassislari arab masallarini o‘rganish tarixini an’anaviy ravishda uch bosqichga ajratadilar:

1. Al-Johizgacha va uning davrida yaratilgan asarlar (Mufaddal Dabbi, Abu Fayd Muarrij, Abu Akrama, Abu Ubayd to‘plamlari).
2. Al-Johizdan keyin to Tarabulsiygacha bo‘lgan davr (maqollar soni bir necha mingdan oshdi).
3. Hozirgi zamon (XIX–XX asr) olimlarining faoliyati.

Tadqiqotimiz natijasida ushbu tasnifga **XXI asrni o‘z ichiga olgan to‘rtinchi davrni** ham qo‘shishni lozim topdik. Chunki hozirgi zamonaviy texnologiyalar asrida an’anaviy arab masallari shakli va so‘zlarida o‘zgarishlar (transformatsiya) kuzatilmoqda. Masalan: «من للطيارة الحمارة» (*min al-humarah ila al-tayyarah* – «eshakdan samolyotga») yoki «من تك للمفك» (*min tak lil-mafak* – «qo‘y ma’rashidan temir-tersak taqiriga») kabi maqollar holatning texnologik va ijobiy tomonga o‘zgarganligini ifodalash uchun ishlatilmoqda.

2. Yevropa arabshunosligida maqollarning tasniflanishi

Arab maqol-matallarini Yevropa ilmida o‘rganish XIX asrning birinchi yarmida boshlangan bo‘lib, u arab shevalarini tadqiq etish (dialektologiya) bilan bog‘liq edi. V.Spittabey, Ye.Rossi, X.Stumme va S.Langberg kabi olimlar maqollarni folkloristik emas, balki tilshunoslik materiali sifatida tahlil qilganlar. Taniqli olim Shayx Muhammad Ayyad at-Tantaviy 1848-yilda Leypsigda «Arab tilining Misr dialekti» darsligini nashr ettirib, unga

yuzdan ziyod xalq maqollarini ilova qilgan. Shuningdek, V.F. Girgas (Suriya maqollari) va V.A. Gordlevskiy (Damashq maqollari) ham bu sohaga hissa qo‘shganlar.

Nemis olimlarining tadqiqotlariga tayanib, Rudolf Zulhaym o‘zining «Arab maqollari (العربية الأمثال)» kitobida ushbu janrni **4 ta turga** bo‘ladi:

1. المثل **(Maqol / nem: Sprichwort):** Avloddan avlodga o‘tib keluvchi, hayot tajribalarini ifodalovchi mavhum qolip. Misol: «بعير لا و عشب» (*ushbun wa-la ba’ir* – o‘t bor, o‘tlaydigan tuya yo‘q), «البغاث استنسر» (*istansara al-baghath* – kichkina qush burgutga aylandi).
2. المثلي التعبير **(Maqoliy ibora / nem: Sprichwörtliche Redensart):** Zulhaymga ko‘ra, u holat haqida muayyan yakuniy xabar bermaydi, balki gapning bir qismi bo‘lib keladi. Eng asosiy farqi — maqoliy ibora **majozga (metaforaga)** asoslanadi, maqol esa majozdan xoli bo‘lishi mumkin (Masalan: «قبل الجار الدار» – *uydan oldin qo‘shni* maqoli majozsizdir). Iboraga misol: «المشط كأسنان سواسية» (*sawasiyah ka-asnan al-mishth* – taroq tishlaridek teng).
3. الحكمة **(Hikmat / nem: Spruchweisheit):** Odatlar, an’analar va hayotiy tajribalarni falsafiy ommaviy so‘zlar bilan ifodalovchi, muayyan faylasuf yoki hukamolarga nisbat beriluvchi va maqsadi nasihat (mavl-iza) bo‘lgan iboralar.
4. التقليدية العبارة **(Kleshalangan ibora / nem: Formelhafte Redewendung):** Duo, qarg‘ish, salomlashishda ishlatiladigan an’anaviy qoliplar. Misol: «العمر أكلأ به الله بلغ» (*ballagha Allahu bihi akla’a al-umr* – Alloh uni o‘z panohida saqlasin).

3. O‘zbekiston arabshunoslik maktabining hissasi va lingvomadaniy mushtaraklik

O‘zbekiston hududida yashagan xalqlarning arablar bilan madaniy aloqalari qadimiydir. Abbosiylar davrida yashagan buyuk vatandoshimiz Abul Qosim Jorulloh Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy (1075–1144) nafaqat nahv (grammatika) olimi, balki arab folklorining ham yetuk bilimdoni edi. Uning **«Al-Mustaqsa fi Amsal al-Arab»** nomli arab maqollari to‘plami ikki xususiyati bilan dunyoda mashhur:

1. Maqoldagi birinchi so‘zning har uch undoshini nazarda tutgan holda mukammal alifbo tartibida tuzilgan.
2. Har bir masaldan so‘ng, shu masal ishtirok etgan va uning ma’nosini ochib beruvchi she’riy baytlar keltir-ilgan. Bu asar 1962-yilda Hindistonda, 1977-yilda Bayrutda chop etilgan.

Mustaqillik yillarida o‘zbek arabshunosligida salmoqli ishlar qilindi. Professor Qahharov Abdujabbor Sodiqovichning «Al-Johizning “Al-Hayavan” asarida “masal” tadqiqoti» monografiyasida arab tilidagi «masal» tushunchasi Yevropa ilm-fanidagi maqol-matal tushunchasidan kengroq ekani, u o‘z ichiga qissalarni ham qam-rab olishi ilmiy isbotlab berildi. Yana bir taniqli olim Shomusarov Shorustam G‘iyosovich «Arab va o‘zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili» va «Arab folklori» monografiyalarida arab va o‘zbek mifologiyasi hamda folk-lor janrlarini qiyosiy-tipologik metod asosida tadqiq etdi.

Bugungi kunda ba’zi arabcha maqol darajasiga yetgan hadislar va frazeologizmlar o‘zbek nutqiga singib ketgan. Masalan: «Beshikdan to qabrgacha ilm izla» hadisi yoki ayni bir xil shakldagi frazeologik birliklar:

- Arabcha: «الكلب من الأم» (*al-ummu min al-kalb*) – O‘zbekcha: *«Itdan ham past»*.
- Arabcha: «العقاب من أبصر» (*absaru min al-uqab*) – O‘zbekcha: *«Burgutdan ham o‘tkir ko‘zli»* (Lochin ko‘z).

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. **Maqol janrining tabiati:** Maqol o‘z ichiga har doim tashbeh (o‘xshatish) va obrazlilikni oladi. Agar tashbehlik sifati yo‘qolsa, u maqol bo‘lmay, oddiy xabar jumlaga aylanib qoladi. Iboralar esa maqollarga lo‘ndaligi va tilda ko‘p aylanishi bilan o‘xshashdir.
2. **Ilmiy yondashuvlar tafovuti:** Klassik arab filologiyasida maqollarni to‘plash til sofligini saqlash maqsa-dida amalga oshirilgan bo‘lsa, Yevropa ilmida u dialektologiyaning bir qismi sifatida o‘rganildi va Rudolf Zulhaym nazaariyalari orqali tarkibiy tizimga solindi.

3. **Milliy maktablar davomiyligi:** Mahmud az-Zamaxshariy asos solgan arab amsolshunosligini o‘rganish an’anasi zamonaviy o‘zbek olimlari A.S. Qahharov va Sh.G‘. Shomusarovlar tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirilib, arab-o‘zbek lingvomadaniy aloqalarining qonuniyatlari ochib berilmoqda.
4. **Dinamik rivojlanish:** XXI asr axborot texnologiyalari davrida arab maqollarining yangi ijtimoiy-texnik tushunchalar hisobiga transformatsiyaga uchrashi ushbu folklor janrining tirik va doimo rivojlanuvchi tizim ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Propp V.Ya. Janri folklora. – Moskva: Labirint, 1998.

[2] Zulheim R. Al-Amsal al-‘Arabiyyah (Arab maqollari). – Bayrut: Dar al-Ilm, 1980.

[3] Zamaxshariy, Mahmud az-. Al-Mustaqsa fi Amsal al-Arab. 1-2 jildlar. – Bayrut, 1977.

[4] Qahharov A.S. Al-Johizning “Al-Hayavan” asarida “masal” tadqiqoti (Monografiya). – Toshkent, 2012.

[5] Shomusarov Sh.G‘. Arab va o‘zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili. – Toshkent: Fan, 2002.

[6] Maydoniy, Ahmad al-. Kitab majma’ al-amsal. – Qohira, 1310 h.

[7] Dickson H.R.P. The Arab of the Desert. – London, 1949.